

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XOLMIRZAYEVA JUMAGUL XAMDAMOVNA

YOSH MUTAXASSISLAR MEHNAT MADANIYATINI
YUKSALTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

UO‘K: 101.1:316:331.101-051(575.1)

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna

Yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishning
ijtimoiy-falsafiy omillari.....3

Холмирзаева Жумагул Хамдамовна

Социально-философские факторы повышения культуры труда
молодых специалистов23

Kholmiraeva Jumagul Xamdamovna

Social and philosophical factors for improving the labor culture of
young specialists45

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of works published.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XOLMIRZAYEVA JUMAGUL XAMDAMOVNA

**YOSH MUTAXASSISLAR MEHNAT MADANIYATINI
YUKSALTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Fal1687 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Turdiyev Bexruz Sobirovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xuseynova Abira Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Azimov Ulug'bek Abduhalilovich
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08. raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil «15» noyabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, ye-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (749 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «28» oktyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «28» oktyabr dagi 41 - raqamli reestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy mehnat munosabatlarining transformatsiyasi sharoitida mehnatga faqat iqtisodiy faoliyat sifatida emas, balki madaniy va axloqiy hodisa sifatida qarashni taqozo etmoqda. Bu esa yosh mutaxassislarda mehnat madaniyatiga oid fazilatlar – odat, intizom, ijtimoiy hamjihatlik va ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va yoshlarda mehnat intizomiga, kasbiy etikaga, jamoada ishlash madaniyatiga va ijtimoiy moslashuvga tayyorlash asosida samarali mehnat qilishga, o'z kasbini ijtimoiy burch sifatida anglashga yo'naltiradi. Shuning uchun yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini rivojlantirishda mehnat an'analari – ustoz-shogird, jamoaviylik va hamkorlikni hamda ijtimoiy moslashuvning praktsiologik xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida yosh mutaxassislar faolligi, ularning mehnat madaniyatini yuksaltirish zarurati, mehnatning mahsuldorligi va global miqyosda inson kapitalini rivojlantirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Yosh mutaxassislar faolligining yetishmasligi, ulardagi tashabbuslarni rag'batlantirmaslik, yosh mutaxassislarni kasbiy rivojlantirish singari muammolarga zamonaviy ish muhitida faqat texnika va innovatsiya emas, balki insonning axloqiy yetukligi, sadoqati va jamoadagi madaniy munosabati kabi innovatsion metodlar vositasida yechim toppish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mehnat madaniyati va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar - ma'naviy qadriyatlar, an'analar, axloqiy tamoyillar, ta'lim va tarbiya, modernizatsiya va innovatsiyalar dialektikasining aksiologik va gnoseologik jihatlarini hamda mehnat madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta'minlash, o'z-o'zini baholash va tanqidga ochiqlik, mas'uliyat va intizomli bo'lishi, innovatsion rivojlanish, karera rivoji va ma'naviy o'sishi, qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish, korporativ madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. "Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning o'qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Chunki butun xalqimiz qatori yoshlar ham – Yangi O'zbekiston bunyodkorlaridir. Yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar, yetuk mutaxassislar etib tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni olib bormoqdamiz"¹. Shu nuqtai nazardan mehnat madaniyatini iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy barqarorlik va shaxsiy o'sish omili sifatida tadqiq etish, yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishda kasbiy etikani shakllantirish, ijodkorlik va innovatsion tafakkurni rag'batlantirish kabi global tendensiyalar asosida Yangi O'zbekistonda yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston", 2022. – Б.49.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PF-5052-son “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 23-avgustdagi PQ-5227-son “Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida”, 2018-yil 20-avgustdagi PQ-3913-son “Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatini muhofaza qilish tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-sentabrdagi 743-son “Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi ijtimoiy falsafaning muhim ahamiyatga molik muammolaridan sanalganligi tufayli xorij, MDH va mamlakatimizda turli aspektlarda tadqiq etilgan. Xususan xorijiy olimlardan J.Bledstein, D.Brown, E.Meyer, Y.Sugimoto, Ch.Shannan asarlarida, mehnat madaniyati, jamiyat hayotida mehnat, global biznesning ko‘rinmas chegaralarida mehnat, kabi mehnat masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, bo‘lib, E.Kassiser, E.Dyurkgeym, T.Parsons, E.Giddens singari olimlar fundamental izlanishlarda mehnat taqsimoti, mehnat inizomi, mehnat madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy zarurati va mehnatning inson hayotiga ma’naviy ta’siri bog‘liq muammolar o‘rganilgan. S.Gloker va P.Vegmyuller mehnat samaradorligi bilan ish vaqtining oqilona sarflanishi o‘rtasidagi aloqadorlikni, E.Maykls, X.Xendfild-Djons, B.Akselrod esa mehnat samaradorligini oshirish tamoyillarini tavsiflaydilar².

² Bledstein J. The Culture of Professionalism: The Middle Class and the Development of Higher Education in America. – Norton: Norton & Company, 1976. – P.369.; Brown D. America’s Culture of Professionalism: Past, Present, and Prospects. – Palgrave., 2014. – P.300 p.; Erin Meyer - The Culture Map: Breaking Through the Invisible Boundaries of Global Business. – New York: Public Affairs (Hachette), 2014. – P.288.; Yoshio Sugimoto. An Introduction to Japanese Society. – Cambridge University Press, 2010. – P.359.; Shannan Clark. Introduction: The Labor of Culture. – Oxford University Press, 2020. – P.583.; Кассирер Э. Опыт о человеке: Введение в философию человеческой культуры. – Москва: «Прогресс», 1988. – С.28.; Дюркгейм Э.О. Разделении общественного труда. – Москва: «Реабилитация», 1996. - С.432.; Парсонс Т. О структуре социального действия. – Москва: Академический проект, 2000. – С.335.; Гидденс Э. Социология. – Тошкент: Шарк, 2002. – Б.198-206.; Glocker C., Wegmueller P. International evidence of time-variation in trend labor productivity growth // Economics Letters, 2018, № 167. - P. 115-119; Savaneviciene A., Vilciauskaite B. Practical Application of Exclusive and Inclusive Talent Management Strategy in Companies Business Management and Education, 2017, №15(2).- P.242-260.; Michaels E., Handfield-Jones H., Axelrod B. The War for Talent. – Brighton: Harvard Business Press. 2001. – P.253.

Mustaqil davlar hamdo'stligi davlatlari olimlaridan mehnat madaniyati va uning mazmuni masalalarini Yu.Jdanov, V.Davidovich "faoliyat", "mehnat", "kasb" va "o'zini anglash" muammolari hamda yoshlarning mehnat faolligi masalalarini, A.Yefremova, E.Marinenko, R.Gurova zamonaviy yoshlarning ijtimoiy qadriyatlarini va mehnatga munosabati, ya'ni mehnat madaniyati muammolarinilar tadqiq etishgan. O.Paryagina, N.Chernishenko, V.Svik asarlarida yosh mutaxassislarni faollashtirish va ular bilan ishlash masalalari o'z aksini topgan. Shuningdek, S.Sopoyev yosh mutaxassislar adaptatsiya jarayonlari, R.Xizbulina yosh mutaxassisning ijtimoiy kasbiy ijtimoiylashuvi, Yu.Nexayeva yosh mutaxasssilar muvaffiqiyatli ishlashida ijtimoiy psixologik shaxs sifatida shakllanishi zaruriyati, F.Jioyeva yosh mutaxassislar ustoz shogird tizimining shakllanishi masalalarini tadqiq etishgan. E.Starkova va S.Veretexina esa mehnat samaradorligining modelini ishlab chiqqanlar³.

Sharq mutafakkirlari merosida o'zbek xalqining mehnatsevarlik, mehnat madaniyati shakllanishi jarayoniga oid falsafiy qarashlar va pandnomalarni turli aspektlarda o'rganish va tadqiq etish qadimdan boshlangan. Jumladan, jamiyat madaniy taraqqiyotida hunarning o'rni masalalari "Avesto"da, Forobiy, Beruniy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Ibn Sino kabi allomalarning ilmiy, falsafiy merosida chuqur tahlil qilingan⁴.

Mamlakatimizda mehnat madaniyatiga aksiologik va praktsiologik yondashuv bo'yicha qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu borada G.Navro'zova, E.Zoirov, G.Yunusova, S.Choriyev, B.Turdiyev, T.Abdullayev, M.Nurmatova kabi olimlar ijtimoiy foydali mehnatni shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotidagi o'rni masalasini tadqiq etishgan⁵. Shuningdek, R.Asomova kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi, M.Qaxxorova yoshlarni halollik, adolatparvarlik va haqiqatparlik ruhida tarbiyalash, Z.Qodirova O'zbekistondagi islohotlar chuqurlashtirish

³ Давидович В.Е., Жданов Ю.А. Сущность культуры. - Ростов-на-Дону, 2006. - С.121.; Ефремова А.Н. Профессия как сфера самореализации личности: автореф. дис.канд.филос.наук - Ростов н/Д, 1990. - С.32.; Мариненко Э.П. Трудовая активность молодежи. М., 1973. - С.77.; Гурова Р.Г. Современная молодежь: социальные ценности и нравственные ориентации. // Педагогика. - Казань. 2000. - №10. С.11.; Парягина О. Молодой специалист: эволюция понятия в современных условиях. // Право и образование. Москва. - 2009. - №1. - С.99.; Чернышенко Н. Работа с молодыми специалистами. // Начальная школа. - 2010. - № 9. - С.3-4.; Цвык В. Нравственная ценность труда. // Вестник РУДН. Сер. Философия, 2014. - № 2. С. 6-15.; Сопоев С.А. Адаптация молодых специалистов в современных российских организациях. - Казан, 2012. - С.3.; Хизбулина Р.Р. Молодой специалист: Особенности социально-профессиональной социализация. - Казан, 2012. - С. 20.; Нехаева Ю.А. Социально-психологические качества личности успешных в трудоустройстве молодых специалистов. - Ярославль, 2008. - С.10.; Джиева Ф.П. Формирование механизма наставничества для молодых специалистов в нефтегазовых компаниях. - Москва, 2014. - С.11.; Старкова Е.В., Веретехина С.В. Социально-экономическая модель эффективности труда. // Управление персоналом и интеллектуальными ресурсами в России, 2017, №4.- С.47-51.

⁴ Фаробий Абу Наср. Фазилят, бахт-саодат ва камолот хакида. - Тошкент: Ёзувчи, 2001.- Б.14.; Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд, - Тошкент: Фан. 1968. - 106 б.; Яссавий А. Девони ҳикмат. - Тошкент: Шарқшунослик институти, 2008. - Б.336.; Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. - Тошкент: Юлдузча, 1990, - Б.30.; Кубро Шайх Нажмиддин. Шархе рисолае одоб-ул зокирин. - Урганч, 1997. - Б.32.

⁵ Наврўзова Г., Зоиров Э., Юнусова Г. Тасаввуфда инсон ва унинг камолоти масаласи. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2006. - Б.6.; Абдуллаев Т.У. Ёшлар фаоллигини ўсиб боришида фалсафанинг ўрни. // Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясини жамиятга тадбиқ қилишда фалсафа фанининг ўрни ва аҳамияти: Республика илмий-назарий анжуман материаллари. - Фарғона, 2019. - Б. 5-7.; Турдиев Б.С. Ўзбекистонда демократик жамият ривожланишида маънавий янгиланишлар стратегияси. / Монография. - Т.: "Lesson Press" нашриёти, 2023. -Б.100.; Нурматова М. Ахлоқий ва эстетик маданият. - Тошкент: TURON-IQBOL, 2016. - Б.13.

jarayonida yoshlar tolerantligi va uning ahamiyati, A.Begmatov inson salohiyatining yuksalishida tarbiyaning boshqa turlari qatori mehnat tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etishi, M.Artikova yoshlarning mehnat tarbiyasida milliy an'analarga nisbatan begonalashuv taxdidi⁶ kabi masalalarini tadqiq etishgan.

Mavzuga oid ilmiy ishlar badiiy adabiyotning mehnat madaniyatini tadqiq etishda muhim rol o'ynadi, albatta. Biroq yoshlarni faollashtirish, ularning mehnatga ijobiy munosabatini shakllantirish sharoitlarida yoshlar bandligini ta'minlash, mehnatning natijadorligi va samaradorligini oshirish, mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini kuchaytirishning falsafiy jihatlarini tadqiq etish zaruriyati vujudga kelmoqda. Ushbu dissertatsiyada mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, yosh mutaxassislarni faollashtirish jarayonida mehnat madaniyatini yuksaltirish masalasi tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan va ijtimoiy-falsafiy jihatdan monografik tarzda tekshirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "O'zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarining ahamiyati" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yosh mutaxassis, uning faoliyati tushunchalarining mohiyati, tuzilishi va asosiy xususiyatlari, shuningdek, tarbiyalash to'g'risidagi qarashlar hamda ularning falsafiy-metodologik jihatlarini tadqiq etish;

yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishda mehnat an'analari jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy vositalar ekanligini ochib berish;

mehnat madaniyati, mehnat tarbiyasining uyg'unligini ta'minlash zarurati ularga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar ishtirokida bo'lishini dalillash;

yosh mutaxassislar faolligini oshirishning va mehnat madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullarini rivojlantirish muhimligi asoslash;

mehnat madaniyatini yuksaltirish uning bir qator muhim omillari hisobiga yuz berishligini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida yosh mutaxassislarning mehnat tarbiyasi bilan bog'liq jarayonlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekistonda yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishda zarur bo'lgan mehnat tarbiyasi, mehnat sharoitlari,

⁶ Асомова Р.С. Касб танлаш мотивацияси ва унинг динамикаси: Псих. фан. ном... дисс.автореф. – Тошкент: 2002. – Б.28.; Qaxxorova M.M., Rahimshikulova M. Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash muammosi. // FarDU. Ilmiy xabarlar. - Farg'ona, 2023. - №1. B.171.; Кадырова З.Р. Толерантность в контексте углубления реформационных процессов в Узбекистане. – Тошкент: Navroz, 2014. – С.96. Бегматов А. Маънавий тарбия. – Тошкент: Академия нашриёти, 2013. – Б.70-74.; Артикова М. Ёшларнинг меҳнат тарбиясида миллий анъаналарга нисбатан бегоналашув таҳдиди. // Таълим муассасаларида тарбия. 2018. № 9. Б.58.

mehnat intizomi, mehnat an'analari, mehnat qadriyatlari va mehnat munosabatlari masalalarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, diaxronik talqin, dialektik, sinergetik, sotsiometrik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini rivojlantirishda ustoz-shogird, jamoaviylik va hamkorlik, odat va intizom, hamjihatlik va moslashuvchanlik kabi mehnat an'alarining praksiologik xususiyatlari shaxsning kasbiy kamoloti uchun asosiy qadriyat (aksilogik), jamoadagi ijtimoiy faolligini belgilaydigan mezon (axloqiy), shaxsiy mas'uliyatini oshirish mexanizmi sifatida ochib berilgan;

mehnat madaniyati bilan mehnat tarbiyasining uyg'unligini ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar mehnat etikasi (shaxsning kasbiy faoliyatdagi axloqiy pozitsiyasi), ma'naviy qadriyatlar (mehnatga ijobiy munosabatning g'oyaviy asosi), a'nalar (ijtimoiy tajriba) kabi aksiologik hamda kasbiy mentalitet (mehnatga xos dunyoqarash va yondashuv), ta'lim va tarbiya (mehnatga tayyorlovchi muhit), modernizatsiya va innovatsiya (an'anaviy va zamonaviy mehnat tartiboti sintezi) kabi gnoseologik omillar dialektikasi asoslab berilgan;

yosh mutaxassislar faolligini oshirishning vebinar va trening, xalqaro sertifikatlashtirish, innovatsion loyihalar uchun platforma yaratish, tashabbuslarni rag'batlantirish va mehnat madaniyatini yuksaltirishning stajirovka, ishlab chiqarish simulyatsiyalari, mentorlik dasturlari kabi innovatsion usullarining aksiologik (inson qadri, tashabbus va mehnatsevarlik bilan bog'langan jarayon), prakseologik (faoliyat samaradorligi va ijodiy yondashuv ifodalovchi ijtimoiy-harakatlantiruvchi tizim) jihatlari aniqlashtirilgan;

O'zbekistonda yoshlar mehnat madaniyatini yuksaltirishning kommunikatsiya va jamoaviy ishlash, axloqiy normalar va qoidalar, kasbiy rivojlanish, mas'uliyat va ishonch, tasodifiy va sistemali baholash, innovatsion rivojlanish, karyera rivoji va ma'naviy o'sish kabi gnoseologik va praksiologik tamoyillari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mehnat madaniyatining milliy (mehnatsevarlik, halollik, mas'uliyat, jamoaviylik) va xalqaro (innovatsion tafakkur, raqamli mehnat muhiti, kommunikativ madaniyat) xususiyatlar uyg'unligi asosida yoshlar faolligi va mehnat madaniyatini yuksaltirishning mentorlik va ijtimoiy loyiha, ish beruvchi, ta'lim muassasasi va yosh mutaxassis o'rtasida uzluksiz axborot almashuv va tajriba integratsiyasini ta'minlovchi muhit kabi mexanizmlari asoslab berilgan;

yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishda ularning tafakkur tarzini yanada rivojlantirish (zamonaviy tafakkur, analitik fikrlash, ijodkorlik va innovatsion yechim topish qobiliyati), ilmiy-ijodiy izlanish ko'nikmasini oshirish hamda "ijod va mehnat" laboratoriyalari tashkil etish zarurati isbotlangan;

O'zbekiston sharoitida mehnat madaniyatini yuksaltirishda yoshlarni mehnat bozorida raqobatbardosh, mas'uliyatli, halol va ijodkor etib tayyorlash uchun mehnatsevarlik, vijdonlilikka o'rgatish, raqamli savodxonlik, kreativ tafakkur, moslashuvchanlikni shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan

nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mehnat an'analari va mehnat tarbiyasi uyg'unligi orqali yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirish, ularning mehnat bozoridagi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishlarini ta'minlash, mehnat munosabatlariga negativ ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etishga doir ilmiy tadqiqot ishlarida, mehnat jarayoniga oid yaxlit konsepsiyani shakllantirishda nazariy manba sifatida shuningdek, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan yosh mutaxassislarning funksional vazifalar samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvni yaratishda, mehnat huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, muammoli masalalarga barham berish jarayonlarida metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoshlar muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning yosh mutaxassislar kasb faolligini rivojlantirish, ularning tafakkur tarzini yuksaltirish, ilmiy-ijodiy ko'nikmasi hamda kasbiy layoqatini oshirishga qaratilgan faoliyatida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, monomarkaz va bandlik muassasalari, Ma'naviyat va ma'rifat markazlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha xizmatchi va mutaxassislarning yoshlarni kasbga o'rgatishga qaratilgan faoliyatlarini amalga oshirishda, mehnat samaradorligini oshirishga bag'ishlangan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, o'quv-uslubiy ishlarni takomillashtirishda, yoshlarning mehnat huquqlarini muhofaza qilish masalalarini hal etish, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashda, mehnat munosabatlari doirasida xodimlar va ish beruvchilarga maslahat va uslubiy yordam berishda, shu bilan birga, bandlik sohasidagi mavjud muammolarni hal etishda, bu sohadagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish, chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, "Falsafa", "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarning mazmunini boyitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan "Besh muhim tashabbus" tadbirlarini tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yosh mutaxassis mehnat madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini tadqiq etish jarayonida olingan natijalar asosida:

yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini rivojlantirishda ustoz-shogird, jamoaviylik va hamkorlik, odat va intizom, hamjihatlik va moslashuvchanlik kabi mehnat an'analarining praksiologik xususiyatlari shaxsning kasbiy kamoloti uchun asosiy qadriyat (aksilogik), jamoadagi ijtimoiy faolligini belgilaydigan mezon (axloqiy), shaxsiy mas'uliyatini oshirish mexanizmiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan A-OT-2021-11 raqamli "O'zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari

kompleksining elektron-transditsiplinar platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda va loyiha doirasida nashr etilgan materiallarda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 22-avgustdagi 04/11-12353-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyihaning ilmiy qimmatini oshirish va sohaga oid vazifalar ijrosini ta’minlashga xizmat qilgan;

mehnat madaniyati bilan mehnat tarbiyasining uyg‘unligini ta’minlashga ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar mehnat etikasi (shaxsning kasbiy faoliyatdagi axloqiy pozitsiyasi), ma’naviy qadriyatlar (mehnatga ijobiy munosabatning g‘oyaviy asosi), a’nanalar (ijtimoiy tajriba) kabi aksiologik hamda kasbiy mentalitet (mehnatga xos dunyoqarash va yondashuv), ta’lim va tarbiya (mehnatga tayyorlovchi muhit), modernizatsiya va innovatsiya (an’anaviy va zamonaviy mehnat tartiboti sintezi) kabi gnoseologik omillar dialektikasiga oid nazariy-metodologik xulosa va takliflardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanalida 2024-2025 yillarda efirga uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 26-iyundagi 05-09-1025-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuvlar ma’lumotlarining ilmiy boyitilishi va tomoshabinlar qiziqishlarining ortishiga erishilgan;

yosh mutaxassislar faolligini oshirishning vebinar va trening, xalqaro sertifikatlashtirish, innovatsion loyihalar uchun platforma yaratish, tashabbuslarni rag‘batlantirish va mehnat madaniyatini yuksaltirishning stajirovka, ishlab chiqarish simulyatsiyalari, mentorlik dasturlari kabi innovatsion usullarining aksiologik (inson qadri, tashabbus va mehnatsevarlik bilan bog‘langan jarayon), prakseologik (faoliyat samaradorligi va ijodiy yondashuv ifodalovchi ijtimoiy-harakatlantiruvchi tizim) jihatlariga oid ilmiy yangilik va takliflardan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo‘nalishi belgilangan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va “Strategiya-2030” davlat dasturining targ‘ibotiga doir chora-tadbirlari” 16-band “Yoshlarni umummilliy g‘oyalar ostida birlashtirish, targ‘ibot ishlarini kreativ usullarda amalga oshirish, ijtimoiy faol, huquqiy-siyosiy, iqtisodiy savodxon yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish maqsadida Markaz huzurida “Yangi kuch” – yosh ma’rifatparvarlar harakati klubini tashkil qilish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan. (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 28-iyuldagi 10/486-son ma’lumotnomasi). Natijada, mehnat madaniyati hamda ma’naviyatini rivojlantirish, milliy urf-odat an’ana va qadriyatlarni saqlash va boyitish sohasidagi sohaga doir bilim va ko‘nikmalarini boyitishga hamda mafkuraviy targ‘ibot ishlarining ommabopligini oshirishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda yoshlar mehnat madaniyatini yuksaltirishning kommunikatsiya va jamoaviy ishlash, axloqiy normalar va qoidalar, kasbiy rivojlanish, mas’uliyat va ishonch, tasodifiy va sistemali baholash, innovatsion rivojlanish, karyera rivoji va

ma'naviy o'sish kabi gnoseologik va praksilogik tamoyillariga oid xulosa va takliflardan O'zbekiston Yoshlar ittifoqining 2023 yil ikkinchi yarim yillik ish rejasining 37-band mahallalarda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnilarini topishga ko'maklashish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida targ'ibot materiallari va chora tadbirlar rejasi ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining 2025-yil 31-iyuldagi 04-13/602-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarning axloqiy va mehnat madaniyatining yuksalishi, kasbiga nisbatan mas'uliyat xissini ortishi, jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun daxldorlik xissinining rivojlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 157 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yosh mutaxassis va uning mehnat faoliyati tushunchalarini tadqiq etishning nazariy metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yosh mutaxassis, uning mehnat faoliyati tushunchalarining mohiyati, tuzilishi va asosiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu bobda yosh mutaxassislarni rivojlantirish bo'yicha qarashlar va ularning falsafiy-metodologik jihatlarini tahlil qilingan.

Hozirgi vaqtda yosh mutaxassis tushunchasi falsafiy tahlilga extiyoj sezgan muhim va ko'p qirrali mavzudur. Yosh mutaxassis - shaxsiy rivojlanish, o'zini hozirlash, kasbiy etika va ahloqiy qadriyatlardagi o'zgarishlar hamda ixtisoslashuvlarni yaxshi anglagan yosh xodimdir. Shu bilan birga ta'lim muassasasini tugatgandan so'ng 30 yoshga to'lmagan, ta'lim muassasasini

tamomlagan va darhol 3 oy ichida olgan mutaxassisligi bo'yicha tashkilotda ish boshlagan shaxslar yosh mutaxassislar hisoblanadi.

Tadqiqotda yosh mutaxassis – bir vaqtning o'zida quyidagi mezonlarga javob beruvchi shaxs deb ta'riflanadi: “- 30 yoshdan oshmagan xodim; - oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining bitiruvchisi; - ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha 3 yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga 3 yildan ko'p bo'lmagan”⁷. Kontent tahlil asosida yosh mutaxassisga nisbatan quyidagicha ta'rif berishni taklif etgan. *“Yosh mutaxassis - oliy va o'rta maxsus ta'limning to'liq kursini tamomlagan, uch yildan ortiq ish stajiga ega bo'lmagan, ishchanlik, bilim, axloq va mas'uliyat borasida katta pozitiv jihatlarga ega, 30 yoshdan oshmagan, shaxsiy rivojlanish, o'zini hozirlash, kasbiy etika va ahloqiy qadriyatlaridagi o'zgarishlar hamda ixtisoslashuvlarni yaxshi anglagan yosh xodimdir”*.

Yosh mutaxassislar mehnat faoliyati kasbiy malaka orttirish, o'z yo'nalishlari bo'yicha izlanishlar olib borish, yangi texnologiyalar va metodologiyalarni o'rganishga bog'liq. Yosh mutaxassis mehnat faoliyatining mohiyatini ish jamoasidagi munosabatlar, kasb yoki mehnat etikasi, ma'naviy o'sish, qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, kasbiy va shaxsiy rivojlanish singari omillar tashkil etadi. Uning strukturasini esa, professional vazifalar, tashkiliy struktura, ta'lim va tayyorgarlik, ma'naviy aspektlar, ijod va innovatsiya, samaradorlik va baholash kabilardan tashkil topgan.

Dissertatsiyada yosh mutaxassis mehnat faoliyatining xususiyatlar ikki qismga *pozitiv* va *negativga* bo'lib tadqiq etilgan. Pozitiv xususiyatlarga kurslar va seminarlarda tahsil olishi, treninglar va master-klasslarda muntazam ishtirok etishlari, o'z sohalaridagi trendlar, yangiliklar va ilmiy ishlarni muvaffaq qilish uchun to'planishlari kabilar kirs, negativ xususiyatlariga yetarli tajribaga ega bo'lmaslik, tadqiqot va rivojlanish ishlarini olib borishda resurslar taqchilligi va boshqalar kiradi.

Yosh mutaxassislarni mehnatga o'rgatishda Sharq mutafakkirlari Ibn Sino, Farobiy, Beruniy asarlarida yosh avlodni tarbiyalashga, ilm olishga, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berilgan. Ibn Sino asarlarida ta'limda muntazamlik, samaradorlik va shogirdning shaxsiy ijodkorligiga⁸, Farobiyning qarashlarida yosh guruhlarining intellektual rivojlanishiga⁹, Beruniyning asarlarida fanning eksperimental tadqiqot va ratsional fikrlash usullariga urg'u berilgan¹⁰. Beruniyning falsafiy konsepsiyasi yosh mutaxassislarning ma'naviy va ilmiy rivojlanishida muhim manba hisoblanadi.

Yosh mutaxassislarni mehnatga o'rgatish va rivojlantirishda islom va tasavvuf falsafasida “qo'l doimo ishda bo'lishi, ya'ni bunyodkorlikka, jamiyatga xizmat etishga, odamlarning og'irini yengil qilishga, mehnatsevarlik, uning gullab yashnashi uchun harakat qilish bilan birga, iymonli bo'lishga ya'ni til va dilning bir

⁷ O'zbekiston Respublikasi Qonuni “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'RQ-406-son 3-modda 14.09.2016 // <https://lex.uz/docs/-3026246>

⁸ Абу Али Ибн Сино комусий олим. Методик библиографик қўлланма. / - Тошкент, 2004. -Б.8-12.

⁹ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004. -B.7.

¹⁰ Беруний. Ижтимоий фанлар. – Тошкент: “Фан”, 1973. -Б.5-7.

xil bo'lishi, musulmonchilik farzlarini bekamu-ko'st bajarish, vijdonan yashashga da'vat etiladi"¹¹.

Yosh mutaxassislarni mehnatga o'rgatishda G'arb tajribasi ham o'ziga xos. "Yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy mehnat munosabatlari tizimini birinchilardan bo'lib angliyalik Frensis Bekon nazariy tahlil qildi. U ijtimoiy tabaqalarning fikrlarini mensimaslik, boshqaruv jarayonidagi xatoliklar, mish-mishlar va g'iybatlarning tarqalishi jamiyatdagi nizolarning paydo bo'lishiga olib kelishini dalillar bilan ko'rsatib berdi"¹². Bu yosh mutaxassislarni mehnatga o'rgatishdagi muhim metodologik asos bo'ldi. Yollanma ishchi va ish beruvchi kapitalist o'rtasidagi o'zaro munosabatlar Adam Smit asarlarida ilk bor tahlil qilindi. Bularning barchasi yosh mutaxassislarni mehnatga o'rgatish ishida muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin"¹³.

Yosh mutaxassislarni mehnatga o'rgatishda jadidlar tajribasida zamonbop ta'lim metodlari, ta'limning ahamiyatga ega bo'lishi, jamiyatning rivoji, fan va madaniyat, madaniy meros sohalarini uyg'unlashishiga e'tibor qaratilgan. Jadidlarning metodologiyasi aniq va samarali ta'lim berishga, tekshiruv va amaliy tajribaga, ta'lim berish va rivojlantirish usullari va ko'nikmalariga asoslangan¹⁴. Bir so'z bilan aytganda, jadidlar tajribasi yosh mutaxassislarni tarbiyalash jarayonida zamonaviy, amaliy bilimlarni o'z ichiga olgan yangi usullarni qo'llashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotchi fikricha, hozirgi vaqtda yosh mutaxassislarni mehnatga o'rgatishda ularning ma'rifati, ijodiy fikrlash qobiliyati va axloqiy qadriyatlarni, falsafiy fikrlashni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Falsafiy o'ylash, bilimni nafaqat faktlar yig'ish, balki ularni to'g'ri va samarali qo'llash bo'yicha harakatlar qilishdan iborat.

Globalashuv zamonida yosh mutaxassislarni mehnatga o'rgatish va rivojlantirishda yosh mutaxassislar orasida jamiyatga nisbatan moslashuvchanlik, adolat, samaradorlik va mas'uliyat hissini rivojlantirish, ijtimoiy majburiyatlarni anglash muhim, zamonaviy shart-sharoitlar ostida stress menejmenti, ijobiy fikrlash, emotsional intellektni rivojlantirish lozim.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, yosh mutaxassislarning faoliyatini yuksaltirishdagi muammolarni hal qilish yosh mutaxassislarning samaradorligi va professional rivojlanishini ta'minlashda dolzarb ahamiyatga ega. Ularning kelib chiqish sabablari iqtisodiy, ijtimoiy va pedagogik omillarga bog'liq. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat, ta'lim muassasalari va xususiy sektor faoliyatida samarali choralar ko'rish shart. Yosh mutaxassislarning samarali va ijodiy faoliyat olib borishlari ularning bilim, mahorat va tajribasini rivojlantirishga

¹¹ Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumid-din. – Toshkent: "Movorounnaxr", 2006. – B.23

¹² Якубов Ш. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлигининг ҳуқуқий механизмлари. Монография. – Т.: «LESSON PRESS», 2018. –Б.97.

¹³ Колесникова Н.А. Модели взаимодействия органов государственной власти и структур гражданского общества // Вестник Университета (Государственный университет управления). - Москва, 2013. Выпуск 21. – С.270–275.

¹⁴ Olimov T.X., Mehmonova Ch.R. Jadidlar ta'limotida zamonaviy o'qiyuvchi timsoli. // Pedagogik tadqiqotlar. – Buxoro, 2025. - №4. -B.302-304

ko'maklashish ham muhimdir. Zero, zamonaviy davrda yosh mutaxassis shaxsi — jamiyatning intellektual resursi, ma'naviy-axloqiy poydevori va innovatsion rivojlanishining bosh omiliga aylanmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yosh mutaxassislar mehnat munosabatlariga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-falsafiy omillar”** deb nomlanib, unda mehnat an'analari va sharoitining yosh mutaxassislar mehnat madaniyati hamda faolligini oshirishdagi ahamiyati tadqiq qilingan. Shuningdek, mehnat madaniyati va mehnat tarbiyasining o'zaro aloqadorligi va unga ta'sir ko'rsatadigan omillari tahlil etilgan.

Yosh mutaxassislar mehnat faoliyatida mehnat qadriyatlari va udumlar bir so'z bilan aytganda mehnat an'analari muhim rol o'ynaydi. Mehnat an'alarining ustoz-shogird, jamoaviylik va hamkorlik, kasbiy etika singari komponentlari yosh mutaxassislar faoliyati va faolligiga ta'sir ko'rsatadi va mehnat madaniyatining yuksalishiga olib keladi. Mehnat an'analari jamiyatdagi o'tmishdan kelib chiqqan, ustozlardan o'rganilgan tajriba va barcha faoliyatda qo'llaniladigan mehnat usullari, ya'ni ustoz-shogird an'alarining metodlarini o'z ichiga oladi. Yosh mutaxassislar uchun bu an'alar samaradorlik, mas'uliyat va ishga bo'lgan munosabatni belgilaydi hamda ularning mehnat madaniyatini yuksaltirish va faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertant fikricha, yosh mutaxassislarning mehnat faoliyati va mehnat madaniyatini yuksaltirish doimiy ravishda yangi metodologiyalar, nazariy konstruksiyalar va amaliy takliflarga ya'ni jamoaviylik va hamkorlikka asoslanadi. Bu borada odatda, pedagogika, psixologiya, iqtisodiyot va boshqaruv sohasidagi ilmiy ishlarni inobatga olish zarur. Xalqimizning mehnat an'analari, qadriyatlar va udumlari yosh mutaxassislarning professional va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga hamda milliy madaniyatni saqlashga yordam beradi. Yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan mehnat an'analari va ular bilan bog'liq kasbiy etikani quyidagi aspektlarini ko'rib chiqish lozim:

1. Mehnatga ehtirom;
2. Tadbirkorlik va ijodkorlik;
3. Sabr-toqat;
4. Jamoaviylik va hamkorlik.

Mehnat an'analari bilan bog'liq ushbu omillar yosh mutaxassis mehnat madaniyatini yuksaltirish va faolligining ortishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotda Yangi O'zbekistonda yosh mutaxassislarning mehnat madaniyati rivojlantirish va faolligining ortishiga to'siq yaratishi mumkin bo'lgan ish sharoiti bilan bog'liq holatlar sifatida yosh mutaxassislarning ish vaqtining aniq emasligi, tizimda shaffoflikning yo'qligi, kam ish haqi, qoloq texnologiyalar hamda odat va intizomning yo'qligi singari omillar keltirilgan. Yosh mutaxassislar mehnat madaniyati yuksaltirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga ish o'rinlarining kamligi, ta'lim sifatining pastligi, psixologik omillar, fikrlash tarzi, tashkilot va rahbarlarning munosabatini aytib o'tish o'rinli.

Hozirgi vaqtda yosh mutaxassislar mehnat madaniyatining yuksalishiga sabab bo'luvchi ish sharoitlari esa, to'liq zamonaviy jixozlanganlik, SMART vositalardan foydalanish, jarayonga informatsion texnologiyalarni jalb etish hisoblanadi. Bu ham

yosh mutaxassisning mehnat madaniyatiga munosabatini belgilaydi va faolligining ortishiga olib keladi.

Dissertant fikricha, mehnat madaniyati bu insonning mehnat faoliyatiga, mehnat jarayonidagi munosabatlariga, mehnat qilishdagi odob-axloq va madaniyat standartlariga asoslangan. U insonning ijodiy va ijtimoiy faoliyatida samarali natijalarga erishish, moslashish xamda jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologiya munosabatlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. "Mehnat madaniyati - bu shaxsning mehnat faoliyatiga munosabatini, shuningdek, mehnatni tashkil etish darajasi va samaradorligini belgilaydigan qoidalar, me'yorlar, qadriyatlar va an'analar to'plami"¹⁵.

Mehnat madaniyatiga ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar, ta'lim va tarbiya sifatida qaraladi. Ular insonning ijodiy faoliyatini, ya'ni yangi maxsulotlar yaratish, samarali texnologiyalarni ishlab chiqish, halol mehnat qilish, insonlarning bir-biri bilan aloqa va hamkorlik o'rnatish qobiliyati, jamoadagi ahillik, jamoadagi ishchilarning intizomliligi, muhitda o'rnatilgan normalar va standartlarga amal qilish, bilim olish, tarbiya va boshqalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mehnat tarbiyasi esa – yoshlarni mehnatga, ishga muhabbat bilan munosabat qilish, ularda mehnat qilish, jamiyatga, o'z oilasiga va iqtisodiyotga foyda keltirish hissini shakllantirish jarayonidir. Ushbu tarbiya yoshlarni mustaqil faoliyatga, muammolarni hal qilishga, konstruktiv va ijodiy yondashishga, mehnat etikasi, kasbiy mentalitet, modernizatsiya va innovatsiyalarga kamolotga o'rgatishni qamrab oladi.

Tadqiqotchining fikricha mehnat madaniyati va mehnat tarbiyasi o'rtasidagi dialektik aloqadorlik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mehnat madaniyati yosh mutaxassislarda ijodkorlikni, jamiyatga foyda keltirishni, mas'uliyatni ta'minlash maqsadida va ijtimoiy qonuniyatlarga muvofiq ravishda shakllanadi. Ularning mehnat madaniyati bilan bog'liq qadriyatlari va standartlari, ma'naviy qadriyatlar mehnat tarbiyasining asosi bo'lib xizmat qiladi.

- mehnat tarbiyasi pedagogik jarayonda mehnat madaniyatini shakllantirish uchun muhim vositadir. Yosh mutaxassislarga mehnat madaniyatini, modernizatsiya va innovatsiyalar, jamoada ishlash qobiliyatlarini shakllantirish uchun to'g'ri yo'lni ko'rsatish lozim. Bu mehnat tarbiyasi hisoblanadi.

- mehnat madaniyati yosh mutaxassislarda orasida mehnat etikasi va axloqiy tamoyillarni rivojlantiradi. Bu esa mehnat tarbiyasining ijtimoiy jihatini yanada mustahkamlaydi.

- yosh mutaxassislardagi mehnat madaniyati, ularning o'z ustunliklari va muvaffaqiyatlari kasbiy mentalitet, ta'lim va tarbiya ya'ni salohiyatlari orqali shakllanadi, ijodkorlik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Mehnat tarbiyasi esa mo'ljallangan maqsadlarga erishishda yordam beradi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, mehnat madaniyati va mehnat tarbiyasini uyg'unlashtirish yosh mutaxassislarning ijtimoiy va professional munosabatlarida mustahkam poydevor yaratadi. Ikki falsafiy konsepsiyaning uyg'unligi yosh

¹⁵ Что такое культура труда. // <https://uchi.ru/otvety/questions/1-chto-takoe-kultura-truda-2-v-chyom-proyav-lyayetsya-kultura-truda-3-chto-takoe-pot-4-v-ch> последние обращение 07.09.2025.

mutaxassislarning mehnat faoliyatida samaradorlikni oshirishi, ijodiy qarashlarini rivojlantirishiga olib keladi. Yosh mutaxassislarda mehnat an'analari va mehnat sharoitlari orqali mehnat madaniyatini yuksaltirish hamda mehnat madaniyati va mehnat tarbiyasini uyg'unlashtirish jamiyatning yangi bosqichlarda rivojlanishini ta'minlaydi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka asos bo'lib xizmat qiladi. Bu o'z navbatida mehnat munosabatlaridagi turli nizolar va ko'ngilsizliklarni oldini olishga sabab bo'ladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Yangi O‘zbekiston yoshlarida mehnat madaniyatini yuksaltirishning zarurati”** deb nomlanib, unda yosh mutaxassislarning faoliyati samaradorligini oshirish va kasb madaniyatini rivojlantirishning innovatsion usullari, shuningdek, mehnat madaniyatining yuksaltirish va uning istiqbollari hamda asosiy yo'nalishlari tadqiq qilingan.

Yosh mutaxassislarning faolligini oshirish ko'plab omillarga bog'liq. Xususan, yosh mutaxassislarning uchun bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, ma'rifiy seminar va treninglar, kurslar va vebinarlar yosh mutaxassislarning bilimlarini kengaytirishda va faollashtirishda yordam beradi. Tadqiqotlar, stajirovkalar va ish tajribasi ularning muvaffaqiyatga erishishida zarur bo'ladigan omillar sirasiga kiradi. O'z ishlariga nisbatan mas'ullik hissining rivojlantirish, mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati ularning faolligini oshiradi. Motivatsion dasturlar, mukofotlar va faoliyatni rag'batlantirish ularning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Interaktiv va amaliy ta'lim usullari yosh mutaxassislarning kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Bular o'z navbatida yosh mutaxassis faolligini ortishiga olib keladi.

Tadqiqotda yosh mutaxassislarning faollashtirishda ijtimoiy-falsafiy omillar sifatida xalqaro sertifikatlash imkoniyatlarini ta'minlash, ishlab chiqarish va ta'lim muassasalari o'rtasida memorandumlar tuzish, ochiq joylarga, stajirovka va amaliyotni kiritish, innovatsion loyihalarni ilgari surishlari uchun platforma yaratish, kuboklar, grantlar va musobaqalar orqali tashabbuslarini rag'batlantirish, forumlar tashkil qilish, tadbirlarda ish faoliyatini yo'lga qo'yish va yangiliklar bilan tanishish imkoniyatlari berish, stressni boshqarish va ish o'rnidagi muammolarni hal qilish bo'yicha maslahatlar, faol ishtirok etishlari uchun maxsus tadbirlar o'tkazish va boshqalar asoslab berilgan. Ushbu takliflar orqali yosh mutaxassislarning professional faoliyatlari yanada samarali bo'ladi hamda kasb madaniyatini yanada rivojlanadi.

Kasb madaniyati, biror kasbni amalga oshirishda insonning ijtimoiy, axloqiy va madaniy qoidalari, qadriyatlari hamda normativlari jihatidan keng mafkuraviy moslashuvini belgilaydi. Yosh mutaxassislarning faoliyatida kasb madaniyatining shakllanish bosqichlari ularning professional o'sishi va turli sohalardagi muvaffaqiyati uchun muhimdir. Tadqiqotchining fikricha, kasb madaniyatining rivojlanish bosqichlari kasbiy idrokni, harakatni va ahloqiy-estetik qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Kasb madaniyatini rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ko'rib chiqish mumkin. Bular “kasbiy tayyorgarlik”, “kasbiy faoliyat”, “shaxsning kasbiy rivojlanishi”, “kasbiy madaniyatning yuksalishi” “kasbiy majmua”dir. Bu usullar kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, ishchilarning ma'naviy va professional

